O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60230100-1.30
2021- yil “28”- avgust

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021 yil “28”- avgust

SOTSIOLINGVISTIKA
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan dasturi SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil 7-may dagi 15 –son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 22-may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet o‘quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26-may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
SOTM3003	2024-2025	8	3

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
	O‘zbek	

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
1.	Majburiy			
	Sotsiolingvistika	45	45	

2. **I. Fanning mazmuni**

“Sotsiolingvistika” tanlov fanining maqsadi: tilshunoslikda jamiyat rivojida til siyosatining o‘rni, tillarning sotsiolingvistik tasnifi, adabiy til, milliy til, davlat tili, umumxalq tili, kreol tillari, pijin tili, sun’iy til, o‘lik til kabi sotsiolingvistik tushunchalarning hozirgi kunda jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini aniqlash, bu tushunchalarda jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yuz beradigan dinamikani kuzatish tillar sotsiolingvistik tipologiyasining jamiyatdagi qo‘llanish omillari xususida bilim berishdir.

Fanning asosiy vazifalari: talabalarda “Sotsiolingvistika” tanlov fani tarkibidan o‘rin olgan tilshunoslik tarixida sotsiolingvistik qarashlar rivoji, tillarning sotsiolingvistik tipologiyasi, til va nutq, til va jamiyat, til va madaniyat, til va me’yor kabi masalalarning vujudga kelishi va rivojlanishi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash. Adabiy til, milliy til, madaniy til, standart til, davlat tili singari sotsiolingvistik tushunchalarning tarixiy taraqqiyoti, ularning jamiyatda qo‘llanish xususiyatlari haqida bilim berishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

“Sotsiolingvistika” fani tarkibiga quyidagilar kiradi:

1-mavzu. “Sotsiolingvistika” fani va uning o‘rganish obyekti va vazifalari. Kirish. “Sotsiolingvistika” fanining predmeti, asosiy bahs mavzulari. “Sotsiolingvistika” atamasi va uning mazmuni haqida. Sotsiolingvistika fani va uning o‘rganish obyekti. Sotsiolingvistika tushunchasi va uning shakllanishi. Jamiyatda sotsiolingvistik tadqiqotlarga bo‘lgan zaruratning vujudga kelish sabablari. Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi masalalari yoritiladi.

2-mavzu. “Sotsiolingvistika” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va farqli tomonlari. Chegaradosh fanlar va sotsiolingvistika.

Sotsiolingvistikaning etnografiya va madaniyatshunoslik bilan munosabati. Muloqot jarayonining jamiyat tarixi, insoniyatning yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bog'liqligi haqida. Sotsiolingvistikaning dialektologiya, areal lingvistika bilan munosabati.

3-mavzu. Mikro va makrosotsiolingvistika. Diaxronik va sinxronik sotsiolingvistika. Nazariy va amaliy sotsiolingvistika. Umumiy va xususiy sotsiolingvistika. Qiyosiy sotsiolinvistika.

4-mavzu. Sotsiolingvistikada metod va metodlar masalasi. Sotsiolingvistik tahlil yo'llari. Sotsiolingvistik metodlar: manba to'plash metodlari, kuzatish metodi, bilvosita va bevosita kuzatuv. so'rovnoma metodi.Yozma manbalarni umumilmiy tahlil metodi, bevosita aralashma kuzatuv metodi, anketalashtirish, og'zaki so'rovlar, testlar, statistik tahlil, korrelatsion tahlil, sotsiolingvistik tadqiqot dasturi.

5-mavzu. Til ontologiyasi. Tilning mavjudlik shakllari: lisoniy hamjamiyat, ijtimoiy-kommunikativ tizim, kod, subkod, kodlashgan til, tilning uslubiy ko'rinishlari, xalqaro tillar, sun'iy xalqaro tillar, milliy tillar, adabiy til va uning shakllari, standartlashgan dialekt, hududiy dialekt, ijtimoiy dialekt, yarim dialekt, sotsiolekt, argo, jargon, sleng, koyne, so'zlashuv tili kabilar o'rganiladi.

6-mavzu. Lisoniy qurilmalar: regional til, vositachi til, mahalliy til, kasbiy til, marosimlar tili. Lisoniy vaziyat va uning turlari. Muvofiqlashgan va muvofiqlashmagan endogloss vazyati. Bir tarkibli muvofiqlashmagan endogloss, ikki tarkibli muvofiqlashmagan ehdogloss, uch tarkibli muvofiqlashmagan endogloss. Muvofiqlashgan va muvofiqlashmagan egzogloss vazyati: ikki tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss, uch tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss, to'rt tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss.

7-mavzu. Tilning funksional tasniflari: Martinening funksional tasnifi (piramida shaklidagi tasnif); Styuartning funksional tasnifi (me'yorlashgan, hozirgi vaqtda ishlatilmaydigan, aralash, sun'iy, chekkadagi til); Fergyussonning funksional tasnifi (yirik, kichik, maxsus); Avrorin va Desheriyevlarning funksional tasniflari(millatlaro, milliy adabiy til, avtonom respublikalar va viloyatlarning adabiy tili, yozuvsiz kichik elatlar tili, yozuvli kichik elatlar tili).

8-mavzu. Til kontakti tushunchasi. Til kontakti turlari:proksimal, distal, bevosita va bilvosita til kontakti. Til kontakti tufayli vujudga keluvchi sotsiolingvistik hodisalar. Bilingvizm ("ikki tillilik", zullisonayn) (C.A.

Ferguson tomonidan 1959-yilda kiritilgan), bilingvizm turlari: koordinativ (sof) bilingvizm, aralash bilingvizm, subordinativ bilingvizm. "Ko'p tillilik" (ingl. multilingualism, frans. plurilinguisme). Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish. Bir til doirasida adabiy tildan shevaga o'tish. Bilinvizm va diglossiya holatlari. Bilingvizm("ikki tillilik", zullisonayn) turlari: maqsadli ikki tillilik, faol va nofaol ikki tillilik, me'yoriy va nome'yoriy ikki tillilik, kundalik odatiy ikki tillilik, oilaviy ikki tillilik, individual ikki tillilik.

9-mavzu: Interferensiya va uning turlari: fonetik, leksik, morfologik va sintaktik interferensiyalar haqida.

10-mavzu. Nutqning ixtisoslashuvi sotsiolingvistik muammo sifatida. Muloqot va uning tarkibiy qismlari. Sotsiolingvistikada "adresant", "kommunikator", "adresat", "kommunikant" tushunchalari. Til birliklarining muloqot jarayonida shakllanishi va muloqot olami tushunchasi. So'zlovchi va tinglovchining madaniy saviyasiga, ijtimoiy mavqeiga, jinsiga, yoshiga, kasb-koriga, aloqaning kontakt yoki distantligiga ko'ra turlari.

11-mavzu.Muloqot jarayonida paralingvistik va ekstralingvistik vositalar. Muloqot jarayonida paralingvistik va ekstralingvistik vositalarning ishtiroki. Nutq jarayonida paralingvistik va ekstralingvistik vositalarning o'rni. Nutqda me'yor va uning sotsiolingvistik ahamiyati. Noverbal vositalarning nutq jarayoniga xoslanishi. Mintaqaviy paralingvistik vositalar haqida umumiy tushuncha. Sotsiolingvistikada mintaqaviy paralingvistik vositalarni o'rganish tamoyillari. Muloqot jarayonida qo'llanuvchi paralingvistik vositalar ma'naviyatimizning muhim tarkibiy qismi sifatida.

12-mavzu. Til siyosati: ichki til siyosati, tashqi til siyosati. Tilni planlashtirish muammolari. O'zbekistondagi til siyosatini davrlashtirish. Sho'rolar davrida g'ayriilmiy, kosmopolitik siyosatning nutqqa ta'siri.O'zbekistonda til sonasida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar, til siyosatining negizlari o'z ifodasini topgan qonunlar, qarorlar, davlat dasturlari: "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida" gi Qonunning qabul qilinishi va "Qonun" ning tilimiz rivojidagi o'rni.

13-mavzu. O'zbekistonda til sonasida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar. O'zbekistonda til sonasida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar, til siyosatining negizlari o'z ifodasini topgan qonunlar, qarorlar, davlat dasturlari: 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va qarorlari haqida.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:

1."Sotsiolingvistika" fanining predmeti, asosiy bahs mavzulari. "Sotsiolingvistika" atamasi va uning mazmuni haqida.

2. Sotsiolingvistika" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va farqli tomonlari.

3. Ijtimoiy lingvistik tipologiya. Standartlashtirish. Hayotiylik. Tarixiylik. Avtonomlik va hk.

4.Sotsiolingvistikaning asosiy tarmoqlari va yo'nalishlari, tadqiqot metodlari.

5. Sotsiolingvistikada metod va metodlar masalasi. Sotsiolingvistik tahlil yo'llari.

6.Sotsiolingvistik metodlar: manba to'plash metodlari, kuzatish metodi, bilvosita va bevosita kuzatuv, so'rovnoma metodi.

7.Yozma manbalarni umumilmiy tahlil metodi, bevosita aralashma kuzatuv metodi, anketalashtirish, og'zaki so'rovlar, testlar, statistik tahlil, korrelatsion tahlil, sotsiolingvistik tadqiqot dasturi.

8.Tilning mavjudlik shakllari: lisoniy hamjamiyat, ijtimoiy-kommunikativ tizim, kod, subkod, kodlashgan til, tilning uslubiy ko'rinishlari.

9. Tilning mavjudligi shakllari: xalqaro tillar, sun'iy xalqaro tillar, milliy tillar, adabiy til va uning shakllari.

10. Tilning mavjudlik shakllari: standartlashgan dialekt, hududiy dialekt, ijtimoiy dialekt, yarim dialekt.

11. Sotsiolekt, argo, jargon, sleng, koyne, so'zlashuv tili.

12.Tillarning aralashuvi: pijin, kreol tillari

13. Lisoniy qurilmalar: regional til, vositachi til, mahalliy til, kasbiy til, marosimlar tili.

14.Lisoniy vaziyat va uning turlari.

15. Tilning funksional tasniflari.

16. Til kontakti.

17.Bilingvizm va uning turlari.

18.Interferensiya va uning turlari.

19. Nutqning ixtisoslashuvi sotsiolingvistik muammo sifatida.

20.Muloqot va uning tarkibiy qismlari. Sotsiolingvistikada "adresant", "kommunikator", "adresat", "kommunikant" tushunchalari.

21.Til birliklarining muloqot jarayonida shakllanishi va muloqot olami tushunchasi.

22.Nutqiy muloqotda milliylik.

23.So'zlovchi va tinglovchining madaniy saviyasiga, ijtimoiy mavqeiga, jinsiga, yoshiga, kasb-koriga, aloqaning kontakt yoki distantligiga ko'ra muloqot turlari.

24.Muloqot jarayonida paralingvistik va ekstralingvistik vositalar.

25.Kommunikativ vaziyat.

26.Til va nutq me'yori.

27. Sotsiolingvistikada savodxonlik muammosi.

28.Til siyosati. Turli davlatlarda olib borilgan til siyosatining nutqqa ta'siri.

30.O'zbekistondagi til siyosatini davrlashtirish. Sho'rolar davrida g'ayriilmiy, kosmopolitik siyosatning nutqqa ta'siri.

31. "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida" gi Qonunning qabul qilinishi va "Qonun" ning tilimiz rivojidagi o'rni.

32. Bugungi kunda O'zbekistonda til sonasida olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlar hamda ularning ahamiyati. 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va qarorlari haqida.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Turli lug'atlardan "sotsiolingvistika", "sotsium", "tilda kompensatsiya qonuni", "ikki tillilik (bilingvizm)", "ko'p tillilik (polilingvizm)", "tillarning sotsiolingvistik tipologiyasi" kabi atamalar izohi aniqlab, ularni qiyosiy sharhlash.

2. Sotsiolingvistikaning boshqa fanlar, xususan yondosh tilshunoslik sohalari bilan aloqasi va ular qatorida tutgan o'rniga doir internet materiallarini topib, ular konspekt qilish va yozma izohlash.

3. Mahmud Koshg'ariy, A.Navoiy, Z.Bobur kabi allomalarning sotsiolingvistik qarashlari.

4. Nutqning ixtisoslashuvi va muloqotning tarkibiy qismlariga doir badiiy va publitsistik matnlardan xarakterli misollar topib, ularni yozma izohlash.

5.Sotsiolingvistik til tipologiyasi, standartlashtirish va hayotiylikning ifodalanishiga doir badiiy hamda publitsistik matnlardan misollar topib, ularni yozma sharhlash.

6. Sotsiolingvistik til tipologiyasi, tarixiylik va avtonomlikning ifodalanishiga doir badiiy hamda publitsistik matnlardan misollar topib, ularni yozma sharhlash.

7. Sotsiumlar o'rtasidagi nutqiy hamkorlikning ifodalanishiga doir badiiy va publitsistik matnlardan beshtadan xarakterli misollar topib, ularni yozma sharhlash

8. Jamiyatda ikki tillilik va ko'p tillilikning rivojlanish sabablari tahliliga doir internetdan xarakterli ilmiy-nazariy fikr-mulohazalarni topish, ularni konspektlashtirish.

9. Til va etnik guruhlar.

10. Til va jins. Erkaklar va ayollar nutqi.

11. Til va yosh. Turli yoshdagi shaxslarning nutqi masalalari.

12.Bolalar nutqi masalalari.

13.Til va axloq. Til va madaniyat. Tabu, evfemizm, vulgar va varvarizmlar.

	14. Til va kasb. 16. Sotsiolingvistik terminlar va ularning mohiyati 17. Sotsiolingvistika sohasida o'zbek tilshunosligida yaratilayotgan ilmiy tadqiqotlar . 18. Mustaqillik davrida o'zbek tili lug'at tarkibida yuz bergan o'zgarishlar. 19. Fitratning "Tilimiz" maqolasini o'qish, konspektlashtirish, tahlil qilish. 20. A.Qahhorning chet tillar pedagogika institutining talabalari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqini o'qish, konspektlashtirish, tahlil qilish. 21. P.Qodirovning "Til va el" nomli badiasini o'qish, tahlil qilish. 22. N. Mahmudovning "Tilimizning tilla sandig'i" nomli ijtimoiy-ma'rifiy esselarini o'qish, konspektlashtirish, tahlil qilish. 23.E.Vohidovning "So'z latofati" asarini o'qish, tahlil qilish, konspektlashtirish. 24. Ahmad A'zamning "Til nomusi" esse, maqolalarini o'qish, tahlil qilish, konspektlashtirish. 25. "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida" gi Qonuni va 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va qarorlari haqida. **Izoh:** Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda belgilash tavsiya etiladi.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: "Sotsiolingvistika" fani bo'yicha bakalavrlar - "Sotsiolingvistika" fanining predmeti, obyekti, maqsadi, sotsiolingvistik tushunchalarning o'rganilish tarixiga oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishning jamiyatdagi til siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati, fanning boshqa fanlar bilan aloqasi va farqli tomonlari, chegaradosh fanlar va sotsiolingvistika, uning etnografiya va madaniyatshunoslik bilan munosabatini o'rganadi, sotsiolingvistikaning tilshunoslik sohalari bilan: dialektologiya, psixolingvistika, etnolingvistika bilan aloqadorligi haqida ma'lumot oladi. Adabiy til, milliy til, madaniy til, standart til, davlat tili kabi sotsiolingvistik tushunchalarning umumiy va farqli holatlari haqida bilimga ega bo'ladi. • ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi:***

	- sotsiolingvistika tarixi, jahon tillarining sotsiolingvistik tasnifi, sotsiolingvistikaning asosiy yo'nalishlari, mikro va makrosotsiolingvistika, diaxronik va sinxronik sotsiolingvistika, nazariy va amaliy sotsiolingvistika haqida ko'nikma hosil qilishi kerak. - tillarning sotsiolingvistik tipologiyasi, uning asosiy tushunchalari, tilning funksional tasniflari, davlat til siyosati, uning asosiy mezonlari, hozirgi davrda O'zbekistonda olib borilayotgan oqilona til siyosati, uning tarixiy ildizlari haqida malaka hosil qilishi kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • kompyuter; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil. • turli xil nostandart testlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1.Алиқулов З., Боймирзаева С. Социолингвистика (ўқув-услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – 96 б. 2. Беликов В., Крысин Л. Социолингвистика. – М., 2001. 3.Бердиалиев А.Ўзбек синхрон социолингвистикаси (дарслик-қўлланма). – Хўжанд, 2015. 4.Dadaboyev H, Usmonova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma) – Toshkent, 2014. 5. Usmonova Sh, N. Bekmuhamedova, Iskandarova G.Sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma) Toshkent , 2014. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1.Ahmad A'zam. Til nomusi. –Toshkent, "Akademnashr", 2013. –86 b.

2.Воҳидов Э. Сўз латофати. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018.

3.Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. -Тошкент: «Ўзбекистон», 1992. -110 б.

4.Мўминов С. Сўзлашиш санъати. – Фарғона: "Фарғона", 1997. – 104 б.

5. Мўминов С. Мулоқот мезони. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2004. – 96

6.Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одобининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Самарканд, 1993. – 25 б.

7. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи (ижтимоий-маърифий эсселар). -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 152 б.

8.Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

9. Маҳмудов Н.Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2017.

10.Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши.– Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2007. – 148 б.

11.Қодиров П. Тил ва эл. –Тошкент: "Маънавият", 2010. –296 б.

Internet saytlari

1.http://www.yedu.ru va http://www.yedu.uz

2.http://ru.wikipedia.org

3.http://www.ziyonet.uz

4.http://www.allpravo.ru

7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 2021-yil _____ _____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** O.Yusupova – SamDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
9.	**Taqrizchilar:** A. Pardayev – SamDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki) X.Xayrullayev – Samarqand davlat chet tillar instituti professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)